

004
R25

CDHSSPE

S. S. Rasulova, A. A. Rashidov

HISOBLASH MASHINALARI VA TIZIMLARINING ISHONCHLILIGI




R 25
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

S.S.Rasulova, A.A.Rashidov

HISOBLASH MASHINALARI VA TIZIMLARINING ISHONCHLILIGI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan (5522000 - Hisoblash mashinalari ishonchliligi)
bakalavriyat talim yo'nalishi talabalari uchun «Hisoblash
mashinalari va tizimlarining ishonchliligi» fanidan
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi*




O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti

Toshkent - 2005

Hisoblash mashinalari va tizimlarining ishonchliligi: O'quv qo'llanma/ S.S. Rasulova, A.A. Rashidov; Toshkent davlat texnika universiteti. Toshkent 2005. I qism. 48 b.

O'quv qo'llanma ishonchlik nazariyasining masalalariga doir asosiy bo'linlardan tashkil topgan. Qo'llanma o'z tarkibiga tiklanadigan va tiklanmaydigan qurilmalarning asosi va zahira elementlari, ulanishining ishonchlik hisobi, hamda qurilmalarning buzilishidagi axborotlar ishonchligini baholash masalalari tekshiruvlar o'tkazish yo'li bilan olingan. Statik, ehtimollar mantiqiy hamda hisoblash mashinalari va tizimlarining yaqinlashtirilgan hisob usullari ko'rib chiqilgan; ishonchlik nazariyasidan qisqacha ma'lumotlar keltirilgan va bundan tashqari namunaviy misollar hamda ko'p masalalar javoblari ko'rsatilgan. Dastur va masalalar fanning ishchi dasturini o'z ichiga qamrab olgan.



KIRISH

Bakalavr va magistrnlarni tayyorlashda talabalarning masalalarni amaliy yechishni bilishlari ham katta ahamiyatga ega. Oliy ta'limda o'tkazilayotgan islohotlar talabalar va o'qituvchilarning oldiga amaliy va o'zi ustida ishlashni tashkil etish kabi muammolarni qo'ymoqda. Hozirgi mavjud o'quv qo'llanmalari bu masalalarga mos kelmaydi. Qo'llanmada ushbu kamchiliklarni to'ldirishga harakat qilganmiz.

Ma'lumki, nazariyani o'rganishning oson usullariga amaliy masalalar yechishi orqali erishiladi. Ushbu qo'llanmada masalalar yechishni osonlashtirish uchun nazariyaning asosiy ma'lumotlari, hisoblash formulalari va masalalarni namunaviy yechimlari berilgan. Talabalar masalalar yechimini ratsional hal etishlari uchun javoblar va ko'rsatmalar keltirilgan. Masalalar to'plamiga o'quv maqsadi qo'yilgan. Shu sababli misollar va masalalar taxminiy tavsifga egadir.

I BOB

HISOBLASH MASHINALARI VA TIZIMLARINING ISHONCHLILIK MIQDORIY TAVSIFI

1.1 Nazariy ma'lumotlar

Ishonchlilikning keng qo'llaniladigan ko'rsatkichlari mezon:

- $P(t)$ ma'lum vaqt mobaynida buzilishga barqaror ishlash ehtimoli (BBIE);

- T_{or} birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqti;

- t_{or} buzilishgacha bo'lgan ishlash vaqti;

- buzilish chastotasi $a(t)$;

- buzilish intensivligi $\hat{\lambda}(t)$;

- tiklanish intensivligi $\mu(t)$;

- buzilish oqimining ko'rsatkichi $w(t)$,

- tayyorlik funksiyasi $K_r(t)$.

- tayyorlik koeffitsienti K_r .

Ma'lum vaqt mobaynida buzilishga barqaror ishlash ehtimoli masalalarini quyidagi guruhga bo'lish mumkin:

1. Tekshirilayotgan qo'llanma buzilishida statik axborotlarning ishonchlilik tavsiflari sonini aniqlash;

2. Mahsulotning ishonchliligini analitik ifodasini qandaydir bitta tavsifi orqali aniqlash;

3. Birinchi guruh masalalarini yechishda ishonchlilikning statik tavsiflari sonini aniqlash va ikkinchi masalani yechishda esa ehtimollik tavsiflari va ular orasidagi analitik bog'liqlik aniqlanadi.

Tiklanmaydigan mahsulotlar ishonchliligini aniqlash mezon. BBIE niig statik ma'lumotlari qo'yidagi ifoda bilan baholanadi:

$$P(t) = (N_0 - n(t)) / N_0 \quad (1.1)$$

Bu yerda N_0 – sinov boshlanishidagi elektron mahsulotlar soni;

$n(t)$ – t vaqt mobaynida buzilgan elektron mahsulotlar soni;

$P(t)$ – BBIE ning statik bahosi. Buzilishlar ehtimoli.

$$\lambda(t) = n(t) / N_0 \quad (1.2),$$

$$q(t) = i - P(t) \quad (1.3),$$

Buzilish chastotasi:

$$\hat{a}(t) = n(\Delta t) / N_0 \Delta t \quad (1.4),$$

bu yerda $n(\Delta t)$ - $t \times \Delta t/2$ dan $t_0 + \Delta t/2$ vaqt oralig'ida buzilgan namunalarning soni.

Buzilish intensivligi

$$\hat{\lambda}(t) = n(\Delta t) / (N_{or} \Delta t) \quad (1.5)$$

bu yerda $N_{or} = (N_j + N_{j+1})/2$ - to'g'ri ishlayotgan elektron mahsulotlar sonining o'rtacha vaqt oralig' Δt ; $N_j - \Delta t$ vaqt oralig'ining boshlanishida to'g'ri ishlayotgan elektron mahsulotlari soni; $N_{j+1} - \Delta t$ vaqt oralig'i tugashida to'g'ri ishlayotgan elektron ob'ektlar soni.

Bu tavsifning ehtimollik bahosi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$\lambda(t) = a(t)jP(t) \quad (1.6)$$

Birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqti:

$$T_{or} = \int_0^{\infty} P(t) dt$$

Birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqtining statik ma'lumotlari quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$T_{or} = \left(\sum_{i=1}^{N_0} t_i \right) / N_0 \quad (1.7)$$

Bu yerda; t_i - i namunaning buzilmay ishlash vaqti;

N_0 - sinalayotgan namunalarning soni.

Har bir i vaqt oralig'ida ishdan chiqqan elementlar n_i sonini bilgan holda T_{or} ni, yaxshisi quyidagi tenglama orqali, aniqlash lozim:

$$\hat{T}_{or} \approx \left(\sum_{i=1}^m n_i t_{ori} \right) / N_0 \quad (1.8)$$

Bu erda, $t_{ori} = (t_{i-1} + t_i)/2$, $m = t_k / \Delta t$, bunda t_{i-1} - i vaqt oralig'ining boshlanish vaqti; t_i - i vaqt oralig'ining tugashi; t_k - ma'lum vaqt mobaynida iidan chiqqan barcha elementlar; $\Delta t = t_{i-1} - t_i$ - vaqt oralig'i.

Tiklanuvchi ob'ektlarning ishonchliligini aniqlash mezonlari.

Statik buzilishlar ko'rsatkichlar to'plami

$$\hat{W}(t) = n(\Delta t) / (N \Delta t), \quad (1.9)$$

Bunda $n(\Delta t)$ - $t - \Delta t/2$ dan $t + \Delta t/2$ gacha bo'lgan vaqt oralig'ida buzilgan ob'ektlar soni; N - sinalayotgan ob'ektlar soni; Δt - vaqt oralig'i.

Buzilishgacha bo'lgan ishlash statik ma'lumotlarning buzilish formulasi orqali aniqlanadi.

$$\hat{t}_{or} = \left(\sum_{i=1}^n n_i t_i \right) / n \quad (1.10)$$

Bunda, t_j – (i-1) va i buzilishigacha bo'lgan vaqtgacha ob'ektning to'g'ri ishlash vaqti; n - bir necha t vaqt mobaynida buzilishlar soni.

Tayyorlik koeffitsentini statik baholash:

$$K_r = N_B(t) / N_0 \quad (1.11)$$

Bunda $N_B(t)$ – t vaqtda ishlash holatida bo'lgan ob'ektlar soni.

Tiklanadigan tizimlar ishonchliligi tekshirishda odatda K_r quyidagi

1.13-misol. EHM qismlari ikkita plataga joylashtirilgan, ularning har biri 10 ta kanalli razemga ega va 40 ta mikrosxemada ko'rilgan. Bitta mikrosxema 10 ta chiqishga ega. Mikrosxemaning (MS) har bir chiqishiga bitta bosma o'tkazgich to'g'ri keladi. Barcha elementlar bir xil $\lambda=0,01$ teng deb hisoblanib, qismning buzilish intensivligi aniqlansin.

1.14-misol. Loyihalash jarayonida uchta EHM dan bittasini tanlash zaruriyati tug'ildi, ularning har birining ishonchlilik funksiyasi $P_1 = e^{-2\lambda t}$, $P_2 = 3e^{-2\lambda t}$, $P_3 = 2e^{-2\lambda t} - e^{-4\lambda t}$ ga teng. Agar EHM dan quyidagi maqsadlarda foydalanilsa, qaysi EHM ni tanlash lozim:

- 1) avtomatik kosmik stansiyada ishlatish uchun;
- 2) bir marotaba uchiriladigan raketani $t = \ln(3/2)/\lambda$. vaqt mobaynida boshqarish uchun;
- 3) kichik integratsiya darajali mikrosxemalardan tashkil topgan bo'lib, statsionar sharoitda ishlatildi.

1.15-misol. Tizim 12600 ta elementdan iborat bo'lib, uning o'rtacha buzilish intensivligi $\lambda = 0,32 \times 10^{-3}$ 1/soat teng. Buzilishga barqaror ishlash ehtimolini $t=50$ soat mobaynida va birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqtini aniqlang.

1.16-misol. Tizim uchta blokdan iborat, birinchi buzilishgacha bulgan o'rtacha ishlash vaqtlari $T_1 = 160$ soat, $T_2 = 320$ soat, $T_3 = 600$ soatga teng. Bu bloklarga ishonchlilikning eksponensial qonuni mos keladi. Tizimning birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqtini aniqlang.

1.17-misol. Qurilmaning buzilishgacha o'rtacha ishlashi $t_{or} = 65$ soat va tiklanishning o'rtacha vaqti $t_r = 1,25$ soatga teng. Tayyorlik koeffitsientini aniqlang.

1.18-misol. Raqamli hisoblash mashinasi katga miqdorda hisoblash ishlarini $t=400$ soat ichida bajaradi. Buzilish sodir bo'lganda ham avvalgi natijalar saqlanib qoladi.

Agar mashina buzilmay ishlasa, hisob $t=350$ soatda bajariladi, bunda $P_c(i, \tau)$ ehtimoli qanday bo'ladi. Buzilmay ishlash vaqtidagi taqsimlash qonuni va RHM tiklanish vaqtining eksponensial ko'rsatkichlari $\lambda=0,1$ 1/soat va $\mu=1$ 1/soat ga teng.

1.19-misol. RHM taqsimlanishning eksponensial vaqtida buzilmay ishlash ko'rsatkichi $\lambda=0,06$ 1/soat va taqsimlanishning eksponensial vaqtda tiklanish ko'rsatkichi $\mu=1$ 1/soat ga teng. 10 soat mobaynida ($\tau=10$) yechiladigan masala $t=15$ soatda yechilsa $P_s^{(i, \tau)}$ topilsin. Bunda faqat bir marotaba tiklanish ruxsat etiladi va hisoblash boshqatdan boshlanadi.

1.4. Yechim va javoblar

1.15-misol yechimi.

Radiolokatsion stansiyaning kuzatish davrida ishlashi

$$t = t_2 - t_1 = 1233 - 258 = 975 \text{ soatga teng.}$$

$\sum_{i=1}^n t_i = 973$ ni formulaga solib $t = t_2 - t_1 = 1233 - 258 = 975$ soatni hisoblab

chiqaramiz va buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlashini topamiz.

$$t_{\text{or}} = \sum_{i=1}^n t_i / n = 975 / 15 = 65 \text{ soat}$$

1.16-misol yechimi.

$$P(6) = 0,83 \times 10^{-3} \text{ 1/soat; } a(100) = 0,757 \times 10^{-3} \text{ 1/soat;}$$

$$T_{\text{or}} = 1220 \text{ soat.}$$

1.17-misol yechimi.

1. Uchta apparatning yig'indisi aniqlang.

$$t_{\Sigma} = \sum_{j=1}^N \sum_{i=1}^{n_j} t_{ij} = 181 + 329 + 245 = 755 \text{ soat.}$$

2. Buzilish sonlarining yig'indisini aniqlang.

$$n_{\Sigma} = \sum_{j=1}^N n_j = 6 + 11 + 8 = 25 \text{ ta buzilish.}$$

3. Ishlashda buzilishning o'rtacha vaqtini quyidagi formula orqali hisoblaymiz.

$$t_{\text{or}} = \left(\sum_{j=1}^N \sum_{i=1}^{n_j} t_{ij} \right) / \left(\sum_{j=1}^N n_j \right) = t_{\Sigma} / n_{\Sigma} = 755 / 25 = 30,2 \text{ soat}$$

1.8-misol yechimi. Bu masalani yechishda quyidagi tenglamalardan foydalanamiz.

$$\lambda_c = \sum_{i=1}^N \lambda_i \text{ va } t_{\text{or}} = 1/\lambda_c$$

1. Har bir qurilma uchun buzilish intensivligini topamiz:
 $\lambda_1 = 34/952 = 0,0375$ 1/soat, $\lambda_2 = 24/960 = 0,025$ 1/soat,
 $\lambda_{3,4,5} = (4+6+5)/210 = 0,0714$ 1/soat.

2. Tizimning buzilish intensivligi

$$\lambda_c = \sum_{i=1}^N \lambda_i = \lambda_1 + \lambda_2 + \lambda_{3,4,5} = 0,0375 + 0,025 + 0,0714 = 0,1321 \text{ 1/soat}$$

3. Tizimning buzilishga o'rtacha ishlashi
 $t_{\text{or}} = 1/\lambda_c = 1/0,1321 = 7,57$ 1/soatga teng.

1.9-misol yechimi.

$$t_{\text{uk}} = \left(\sum_{i=1}^N t_i \right) / n = (12+23+15+9+17+28+25+31)/8 = 160/8 = 20 \text{ min}$$

1.10-misol yechimi. $P(t)$, $a(t)$ va T_{or} formulalardan foydalanib:

1. buzilishga barqaror ishlash ehtimolini hisoblang.
 $P(t) = e^{-\lambda t} = e^{-2,5 \cdot 10^{-5} t}$

$$P(500) = e^{-\lambda t} = e^{-2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 500} = e^{-0,0125} = 0,9875;$$

$$P(1000) = e^{-\lambda t} = e^{-2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 1000} = e^{-0,025} = 0,9753;$$

$$P(2000) = e^{-\lambda t} = e^{-2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 2000} = e^{-0,05} = 0,9512;$$

2. Buzilish chastotasini hisoblaymiz: $a(t) \lambda(t)/P(t) = 2,5 \cdot e^{-2,5 \cdot 10^{-5} t}$

$$a(500) = 2,5 \cdot 10^{-5} e^{-2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 500} \cdot 500 = 2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 0,9875 = 2,469 \cdot 10^{-5} \text{ 1/soat,}$$

$$a(1000) = 2,5 \cdot 10^{-5} e^{-2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 1000} \cdot 1000 = 2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 0,9753 = 2,469 \cdot 10^{-5} \text{ 1/soat;}$$

$$a(2000) = 2,5 \cdot 10^{-5} e^{-2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 2000} \cdot 2000 = 2,5 \cdot 10^{-5} \cdot 2,378 = 2,469 \cdot 10^{-5} \text{ 1/soat;}$$

Birinchi buzilishgacha o'rtacha ishlashini hisoblash.

$$T_{\text{or}} = 1/\lambda = 1/2,5 \cdot 10^{-5} = 40000 \text{ soat.}$$

1.15-misol yechimi.

Tizimning buzilish intensivligi $\lambda_{\text{tiz}} = \lambda_{\text{o'r}} * N$ formulaga asosan.

$$\lambda_{\text{tiz}} = \lambda_{\text{o'r}} * N = 0,32 * 10^{-6} * 12600 = 4,032 * 10^{-3} \text{ 1/soat bo'ladi.}$$

Shunga asoslanib

$$R(50) = e^{-\lambda t} = e^{-4,032 * 10^{-3} * 50} \approx 0,82;$$

Birinchi buzilishgacha bo'lgan $T_{\text{o'r,tiz}}$ tizimning o'rtacha ishlashi quyidagi formula orqali hisoblanadi. Formulaga λ_{tiz} qiymatlarini qo'yib

$$T_{\text{o'r,tiz}} = 1/\lambda_{\text{tiz}} = 1/4,032 * 10^{-3} \approx 250 \text{ soat.}$$

1.16 - misol yechimi.

Tizimning birinchi buzilishgacha o'rtacha ishlash vaqtini T_{ur} formulasidan foydalanib topamiz. Bizning holatda

$$\lambda_{\text{tiz}} = \lambda_1 + \lambda_2 + \lambda_3 = 1/T_1 + 1/T_2 + 1/T_3 = 1/160 + 1/320 + 1/600 \approx 0,011 \text{ 1/soat u holda}$$

$$T_{\text{o'r,tiz}} = 1/\lambda_{\text{tiz}} = 1/0,011 \approx 91 \text{ soat.}$$

1.17-misol yechimi. Formulaga asosan

$$K_r = T_{\text{o'r}} / (T_{\text{o'r}} + t_{\text{tik}}) = 1 / (1 + t_{\text{tik}} / T_{\text{o'r}}) = 1 / (1 + 0,19) = 0,98$$

QAYTA TIKLANMAYDIGAN QURILMALARNING ASOSIY BOG'LOVCHI ELEMENTLARINING ISHONCHLILIK TAVSIFINI HISOBLASH

2.1. Hisoblash usullari

Qayta tiklanmaydigan qurilmalarning asosiy bog'lovchi elementlarining ishonchlik tavsifini hisoblash quyidagi formula orqali bajariladi.

$$P_c(t) = P_1(t) P_2(t) \dots P_n(t) = \prod_{i=1}^N P_i(t), \quad (2.1)$$

$$P_c(t) = \exp\left(-\sum_{i=1}^N \int_0^t \lambda_i(t) dt\right).$$

Eksponensial taqsimlash uchun:

$$P_c(t) = e^{-\lambda_c t} = e^{-t/T_{or,c}}; \quad \lambda_c = \sum_{i=1}^N \lambda_i \quad (2.2)$$

$$a_c(t) = \lambda_c e^{-\lambda_c t}, \quad T_{or,c} = 1/\lambda_c.$$

Agar elementlar bir xil ishonchlilikka ega bo'lsa tizim intensivligi:

$$\lambda_c = \sum_{i=1}^N N_i \lambda_i \quad (2.3)$$

bu yerda N - i turdagi elementlar soni;

r - turdagi elementlar soni.

Yuqori ishonchlilik tizimlarida yaqinlashtirilgan formulalar ishlatiladi.

$$P_c(t) \approx 1 - t \sum_{i=1}^N N_i \lambda_i = 1 - \lambda_c t,$$

$$\lambda_c = \sum_{i=1}^N N_i \lambda_i$$

$$T_c = 1 / \sum_{i=1}^N N_i \lambda_i \quad (2.4)$$

$$a_c(t) \approx \lambda_c (1 - \lambda_c t)$$

Barcha $P(t)$ qiymatlarda,

$$P_1(t) P_2(t) \dots P_n(t) \approx 1 - \sum_{i=1}^N q_i(t),$$

$$P_i^N(t) - Nq_i(t) \quad (2,5)$$

$$\sqrt{P_i(t)} = 1 - q_i(t)/N$$

2.2. Namunaviy misollar

2.1-misol. Tizim $N=5$ blokdan iborat. Bloklar ishonchligi t vaqt mobaynida buzilmay ishlash ehtimolligi nimaga teng?

$P_1(t)=0,98$; $P_2(t)=0,99$; $P_3(t)=0,97$; $P_4(t)=0,985$; $P_5(t)=0,975$.
Tizimning buzilishga barqaror ishlash ehtimolligi aniqlansin:
Yechim.

$P_c(t) = \prod_{i=1}^N P_i(t)$ - formulaga asoslanib $P_c(t) = \prod_{i=1}^N P_i(t) = 0,98*0,99*0,97*0,985*0,975$ hosil qilinadi.

$P_1, P_2 \dots P_5$ ehtimolligi birga yaqin, shu sababli $P(t)$ ni hisoblash osonlashadi va yaqinlashtirish formulasidan foydalanamiz. Bizning holatda $q_1=0,02$; $q_2=0,001$; $q_3=0,03$; $q_4=0,015$; $q_5=0,025$ bo'lsa.

$$P_c(t) = \prod_{i=1}^N P_i(t) \approx 1 - \sum_{i=1}^N q_i(t) = 1 - (0,02 + 0,001 + 0,03 + 0,015 + 0,025) = 0,9.$$

2.2-misol. Tizim ikkita qurilmadan iborat. Buzilishga barqaror ishlash ehtimoli $t=100$ soat vaqt mobaynida $P_1(100)=0,95$; $P_2(100)=0,97$ ga teng. Bunda ishonchlikning eksponensial qonunidan foydalansak to'g'ri bo'ladi. Tizimning birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlashini topish lozim.

Yechim. BBIE ni toping:

$$P_c(100) = P_1(100) P_2(100) = 0,95*0,97=0,92$$

Quyidagi formuladan foydalanib elektron mahsulotning buzilish intensivligi topilsin.

$$P_c(100) = 0,92 = e^{-\lambda c t} = e^{-\lambda c 100}$$

$$\lambda_s * 100 \approx 0,83 * 10^{-3} \text{ 1/soat bo'lsa,}$$

$$T_{o'r.tiz} = 1/\lambda_{tiz} = 1/0,83 * 10^{-3} \approx 1200 \text{ soat bo'ladi.}$$

2.3 Topshiriqlar

2.3-misol. T vaqt mobaynida bitta elementning buzilishsiz ishlashi ehtimoli $P(t) = 0,9997$ ga teng. Tizimning buzilishsiz ishlash ehtimolini aniqlang. U $N=100$ ta xuddi shunday elementlardan iborat.

2.4-misol. Tizimning t vaqt mobaynida buzilishsiz ishlash vaqti t , $P_c(t)=0,95$ ga teng. Tizim $N=120$ ta bir xildagi elementlardan tashkil topgan. Elementning buzilmay ishlash ehtimolini toping.

2.5-misol. Tizimda buzilish intensivligi $\lambda_1 = 10^{-3}$ 1/soat bo'lgan elementlardan foydalaniladi. Tizim $N_1=500$ va $N_2=2500$ elementdan iborat. Birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqti va buzilmay ishlash ehtimolining biror bir soat oxirida $P_c(t)$ ni aniqlash talab etiladi.

2.6-misol. Mikroprosessor (MP) tizimlarida elementlar intensivligi $\lambda=10^7$ 1/soat teng bo'lganlaridan foydalaniladi.

Tizim elementlari soni $N_1=1000$ va $N_2=2000$ ga teng. Ikkinchi soat oxiridagi birinchi buzilishning o'rtacha ishlash vaqtini aniqlash talab etiladi.

2.7-misol. Hisoblash qurilmasi beshta qurilmadan tashkil topgan, uning $t=100$ soat ichida to'g'ri ishlash ehtimoli $P_1(100)=0,9996$; $P_2(100)=0,9998$; $P_3(100)=0,9996$; $P_4(100)=0,999$; $P_5(100)=0,9998$ ga teng. Hisoblash tizimining $t=100$ soat vaqt mobaynida buzilish chastotasini aniqlash talab etiladi. Qurilmalarning buzilishi bir-biriga ta'sir etmaydi deb taxmin qilsak, bu — lar uchun ishonchlilikning eksponensial qonuniga to'g'ri keladi.

2.4. Real taqsimlanish uchun masalalar yechimi

2.8-misol. Elektron mahsulotning buzilishgacha ishlash vaqti (misol uchun MP ning ba'zi qurilmalari). Rele taqsimlanish qonuniga bo'ysunadi. Mahsulotning sinash tavsiflarining ishonchliligini hisoblash talab etiladi $P(t)$, $a(t)$, $\lambda(t)$, T_{or} , agar taqsimlanish ko'rsatkichlari $\sigma = 1000$ soat bo'lsa, $t=500, 1000, 2000$ soatni hisoblang.

Yechim. Rele taqsimlanish formulasidan foydalanib,

$$P(500) = e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}} = e^{-\frac{500^2}{2 \cdot 1000^2}} = e^{-0,125} = 0,88$$

$$a(500) = \frac{t}{\sigma^2} e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}} = \frac{500}{1000^2} e^{-\frac{500^2}{2 \cdot 1000^2}} = 0,44 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat};$$

$$\lambda(500) = \frac{t}{\sigma^2} = \frac{500}{1000^2} = 0,5 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat};$$

$$T_{or} = \sqrt{\frac{\pi}{2}} \cdot \sigma = \sqrt{\frac{P}{2}} \cdot 1000 = 1253 \text{ soat}$$

$t = 1000$ soat uchun:

$$P(1000) = e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}} = e^{-\frac{1000^2}{2 \cdot 1000^2}} = e^{-0,3} = 0,606;$$

$$a(1000) = \frac{t}{\sigma^2} e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}} = \frac{1000}{1000^2} e^{-\frac{1000^2}{2 \cdot 1000^2}} = 0,606 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat}$$

$$\lambda(1000) = \frac{t}{\sigma^2} = \frac{1000}{1000^2} = 10^{-3} \text{ 1/soat};$$

$t = 2000$ soat uchun:

$$P(2000) = e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}} = e^{-\frac{2000^2}{2 \cdot 1000^2}} = e^{-2} = 0,1353;$$

$$a(2000) = \frac{t}{\sigma^2} e^{-\frac{t^2}{2\sigma^2}} = \frac{2000}{1000^2} e^{-\frac{2000^2}{2 \cdot 1000^2}} = 0,27 \cdot 10^{-3} \text{ 1/coam};$$

$$\lambda(2000) = \frac{t}{\sigma^2} = \frac{2000}{1000^2} = 2 \cdot 10^{-3} \text{ 1/coam};$$

misollardan ko'rinib turibdiki, IS larda qurilgan ushbu qurilma past ishonchlikka ega bo'lib, amalda $t < 500$ soat mobaynida ishlashi mumkin.

2.9-misol. Elektron qurilmaning xavfsiz ishlash vaqti rele qonuniga bo'ysunadi, uning ko'rsatkichlari $\sigma = 1860$ soatga teng, $t = 1000$ soat vaqt mobaynida elektron qurilmaning BBIE hisoblansin, buzilish chastotasi $a(1000)$, buzilish intensivligi $\lambda(1000)$ va birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlashini hisoblang.

2.5 Javoblar va yechimlar

2.3-misol yechimi. Tizimning BBIE

$$P_c(t) = P^N(t) = (0,9997)^{100} \text{ ga teng.}$$

$P_c(t)$ ehtimoli birga yaqin, shuning uchun uni hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$g(t) = 1 - P(t) = 1 - 0,9997 = 0,0003 \text{ unda}$$

$$P_c(t) \approx 1 - N g(t) \approx 1 - 100 \cdot 0,0003 = 0,97 \text{ bo'ladi.}$$

2.4-misol yechimi. Elementning BBIE

$P(t)$ birga yaqin bo'lgani uchun quyidagi formula orqali hisoblanadi.

$$g(t) = 1 - P(t) = 1 - 0,95 = 0,05$$

Unda:

$$P(t) = \sqrt[N]{P_c(t)} = 1 - Q_s(t)/N = 1 - 0,05/120 \approx 0,9996$$

2.5-misol yechimi. Buzilish intensivligi quyidagiga teng:

$$\lambda_{c1} = N_1 \lambda_1 = 500 * 10^{-5} = 0,5 * 10^{-2} \text{ 1/soat};$$

$$\lambda_{c2} = N_2 \lambda_2 = 2500 * 10^{-5} = 0,025 \text{ 1/soat};$$

Unda:

$$P_{c1}(t) = e^{-\lambda_{c1}t} = e^{-0,5 * 10^{-2} * 1} = 0,995;$$

$$P_{c2}(t) = e^{-0,025} = 0,973.$$

$$T_{o'r.c1} \ 1/\lambda_{c1} = 1/0,005 = 200 \text{ soat.}$$

$$T_{o'r.c2} \ 1/\lambda_{c2} = 1/0,025 = 40 \text{ soat.}$$

2.6-misol yechimi.

$$\lambda_{c1} = N_1 \lambda_1 = 1000 * 10^{-7} = 10^{-4} \text{ 1/soat};$$

$$\lambda_{c2} = N_2 \lambda_2 = 2000 * 10^{-7} = 2 * 10^{-4} \text{ 1/soat};$$

$$P_{c1}(t) = e^{-\lambda_{c1}t} = e^{-10^{-4} * 2} = 0,9999;$$

$$P_{c2}(t) = e^{-\lambda_{c2}t} = e^{-2 * 10^{-4} * 2} = 0,9998.$$

$$T_{o'r.c1} \ 1/\lambda_{s1} = 1/10^{-4} = 10000 \text{ soat.}$$

$$T_{o'r.c2} \ 1/\lambda_{s2} = 1/2 * 10^{-4} = 5000 \text{ soat.}$$

2.7-misol yechimi. Topshirik bo'yicha qurilmalar bir-biriga bog'liq emas.

Shu sababli tizimning buzilmay ishlashining ehtimoli, qurilmaning buzilmay ishlash ehtimoliga teng. Yuqori ishonchlili tizimlar formulasiga asosan:

$$P_{tiz}(100) \approx 1 - t \sum_{i=1}^5 q(1000) = 1 - (0,0004 + 0,0002 + 0,0004 + 0,0001 - 0,0002) = 0,9978,$$

BBIE birga yaqin, bunda

$$P_{tiz}(t) \approx 1 - t \sum_{i=1}^N N_i \lambda_i = 1 - I_{tiz} \ t, \text{ unda}$$

buzilish intensivligini quyidagi tenglama orqali aniqlang.

$$\lambda_{tiz} = (1 - R_s(t))/t$$

$P_{tiz}(100)$ va $t=100$ soatlarni joyiga qo'yamiz.

$$\lambda_{tiz} = (1 - 0,9978)/100 = 2,2 * 10^{-5} \text{ 1/soat};$$

unda buzilish chastotasi

$$a_{tiz}(t) \approx \lambda_{tiz}(1 - \lambda_{tiz}t)$$

$$a_{tiz}(t) = 2,2 * 10^{-5} (1 - 2,2 * 10^{-5} * 100) = 2,195 * 10^{-5} \text{ 1/soat.}$$

2.9-misol javobi.

$$P(1000) = 0,87;$$

$$a(1000) = 0,25 * 10^{-3} \text{ 1/soat};$$

$$\lambda(1000) = 0,29 * 10^{-3} \text{ 1/soat};$$

$$T_{o'r} = 2320 \text{ soat.}$$

QAYTA TIKLANMAYDIGAN ZAHIRA QURILMALARINING
ISHONCHLILIK TAVSIFLARINI HISOBLASH

3.1. Hisoblash usullari

Zahira ko'rinishi quyidagi formulalar asosida hisoblanadi.

1. Doimiy yoqiq zahirani umumiy zahiralash va butun darajalash

$$P_{tiz}(t) = 1 - \left[1 - \prod_{i=1}^n P_i(t) \right]^{m+1} \quad (3.1)$$

Bu yerda $P_i(t)$ – BBIE t vaqt mobaynidagi i element;

N – asosiy yoki ixtiyoriy zahiralash zanjiridagi elementlar soni:

$$P_{tiz}(t) = 1 - [1 - e^{-\lambda_i t}]^{m+1} \quad (3.2)$$

$P_i(t) = e^{-\lambda_i t}$ bo'lganda

$$T_{o'r.tiz} = \frac{1}{\lambda_0} \sum_{i=0}^m \frac{1}{i+1} = T_{o'r0} \sum_{i=0}^m \frac{1}{i+1};$$

Bu yerda $\lambda_0 = \sum_{i=1}^n \lambda_i$, $T_{o'r0}$ – zahiralanmagan tizimning buzilmasdan ishlashining o'rtacha vaqti.

Ishonchliligi teng bo'lmagan elementlarni zahiralash

$$P_{tiz}(t) = 1 - \prod_{i=1}^n q_i(t) = P_{tiz}(t) = 1 - \prod_{i=0}^m [1 - P_i(t)] \quad (3.3)$$

2. Doimiy yoqiq zahirani o'lib zahiralash va butun darajalash

$$P_{tiz}(t) = \prod_{i=1}^n \{1 - [1 - P_i(t)]^{m_i+1}\} \quad (3.4)$$

Bu yerda m_i – I elementni zaxiralash darajasi;

n – asosiy tizim elementlari soni:

$P_i(t) = e^{-\lambda_i t}$ bo'lganda

$$P_{tiz}(t) = \prod_{i=1}^n \{1 - [1 - e^{-\lambda_i t}]^{m_i+1}\} \quad (3.5)$$

Bir xil ishonchli elementlar va bir xil darajali zahiralashda

$$P_{\text{tiz}}(t) = \{1 - [1 - e^{\lambda^* t}]^{m+1}\}^n \quad (3.6)$$

$$T_{\text{o'rtiz}} = \int_0^{\infty} P_{\text{tiz}}(t) dt = \frac{(n-1)}{\lambda(m+1)} \sum_{i=1}^m \frac{1}{V_1(V_1+1)\dots(V_1+n-1)} \quad (3.7)$$

Bu yerda $V_i = (i+1)/(m+1)$

Umumiy o'rin bosuvchi zahiralash.

$$P_{m+1}(t) = P_m(t) + \int_0^t P(t-\tau) * a_m(\tau) d\tau \quad (3.8)$$

Bu yerda $P_{m+1}(t)$, $P_m(t)$ – BBIE $m+1$ va m darajali zahiralangan tizimlar;

$P(t-\tau)$ – BBIE $(\tau-t)$ vaqt mobaynidagi asosiy tizimi;

$a_m(\tau)$ – τ ning xohlagan vaqtidagi m darajali buzilish chastotasi.

Ishonchlilikning eksponential qonuni va zahiralashning yuklanmagan holati

$$P_{\text{tiz}}(t) = e^{-\lambda_0 t} \sum_{i=1}^m \frac{(\lambda_0 t)^i}{i!} \quad (3.9)$$

$$T_{\text{o'rtiz}} = T_{\text{o'rt.0}} (m+1) \quad (3.10)$$

Bu yerda λ_0 , $T_{\text{ur.0}}$ – buzilish intensivligi va asosiy qurilmaning birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqti.

3.2. Namunaviy misollar

3.1-misol. Tizim 10 ta bir xil ishonchlilik elementlardan tashkil topgan bo'lib, elementning birinchi buzilishigacha T_{or} o'rtacha ishlashi 1000 soatga teng. Bu tizimga ishonchlilikning qonuni mos keladi deb faraz qilamiz va tizimning asosiy hamda zahirasi teng ishonchli bo'ladi. Tizimning birinchi buzilishgacha bo'lgan $T_{\text{o'rtiz}}$ ning o'rtacha ishlashini topish talab etiladi. Bundan tashqari buzilish chastotasi $a_{\text{tiz}}(t)$ va $t=30$ soat vaqt mobaynida buzilish intensivligi $\lambda(t)$ quyidagi holatlar uchun aniqlansin;

a) zahiralangan tizimlar,

b) doimiy yoqilgan zahirali tizimlarda dubl qilinishi,

v) yoqilgan zahirali o'rin bosuvchi tizimlarni yordamchi almashtirish uslubi.

Yechim. Masalaning sharti bo'yicha elementlarning ishonchligi eksponensial qonuniga to'g'ri kelgani uchun asosiy tizimning birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlashi

$$T_{o'r.o} = T_a = 1/\lambda_{tiz} = \frac{1}{\sum_{i=0}^{10} \lambda_i} = 1/(10 * \lambda) = T/10 = 1000/10 = 100 \text{ soat bo'ladi.}$$

Shuning uchun doimiy yoqiq holdagi zahirani umumiy zahiralash formulasiga asoslanib,

$$T_{o'r.tiz} = \frac{1}{\lambda_0} \sum_{i=0}^m \frac{1}{i+1} = T_{yp0} \sum_{i=0}^m \frac{1}{i+1} = T_{o'r.o} (1 + 1/2) = 150 \text{ soat.}$$

Tizimlarning o'rin bosishini yordamchi almashtirilish usuliga ko'ra:
 $T_{o'r.tiz} = T_{tiq} = T_{o'r.o} (m+1) = 2T_{o'r.o} = 200 \text{ soat.}$

Zahiralanmagan tizimlar uchun buzilish intensivligi vaqtga bog'liq bo'lmaydi. Har bir element buzilish intensivligi yig'indisiga teng.

Tizim buzilish intensivligi va chastotasi $t=50$ soat mobaynida (a , holati uchun)

$$\lambda_a(50) = \sum_{i=1}^{10} \lambda_i = \sum_{i=1}^{10} 1/T_i = 1/T_{o'r.o} = 0,01 \text{ 1/soat.}$$

$$a_a(50) = \lambda_a(50)/P(50) = \lambda_a(50)e^{\lambda_a(50)50} = 0,01 e^{-0,01 \cdot 50} \approx 6 \text{ Ch}10^{-3} \text{ 1/soat.}$$

Tizimlar o'rin almashishida buzilmay ishlash chastotasi va intensivligi bizga ma'lum bo'lgan tizimlarning buzilmay ishlash ehtimolligi orqali aniqlanadi. Ko'rilayotgan holatda zahiralanmagan tizim elementlari soni $n=10$, zahiralash darajasi $m=1$. Formulaga asoslanib:

$$P_a(t) = 1 - [1 - e^{-\lambda_0 t}]^{m+1} = 2 - e^{-\lambda_0 t} \text{ doimiy yoqilgan zahira}$$

$$P_{tiz}(t) = e^{\lambda_0 t} \sum_{i=0}^m \frac{(\lambda_0 t)^i}{i!} = e^{-l_0 t} (1 + l_0 t)$$

$$\text{bu yerda } l_0 = \sum_{i=1}^{10} \lambda_i = \sum_{i=1}^{10} 1/T_i = 0,01 \text{ 1/soat.}$$

a) va v) hollari uchun buzilish intensivligi va chastotasini topamiz:

$$\alpha_{\sigma}(t) = -P'_{\sigma}(t) = 2\lambda_0 - e^{-2\lambda_0 t} (1 - e^{-\lambda_0 t}),$$

$$\lambda_{\sigma}(t) = a_{\sigma}(t)/P_{\sigma}(t) = (2\lambda_0 - e^{-\lambda_0 t} (1 - e^{-\lambda_0 t})) / (2e^{-\lambda_0 t} - e^{2\lambda_0 t}), =$$

$$(2\lambda_0 (1 - e^{-\lambda_0 t})) / (2 - e^{-\lambda_0 t}),$$

$$a_{tik}(t) = -P'_{tik}(t) = \lambda^2 t e^{-\lambda \sigma t}.$$

Olingan tenglamaga asoslanib ma'lumotlarni o'z joyiga qo'yamiz.

$$\alpha \sigma(50) = 4,8 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat}, \lambda \sigma(t) = 5,7 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat},$$

$$a_{tik}(50) = 3 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat}, \lambda_{tiz}(t) = 3,33 \cdot 10^{-3} \text{ 1/soat}.$$


3.3. Topshiriqlar

3.2-misol. EHM tashqi qurilmalar (TQ) ining ishonchligini oshirish uchun uning barcha elementlari o'rmiga boshqalari tayyorlangan. Taxminan, elementlar bir turdagi buzilishga mahkum va buzilish ketma-ketligi aniqlanmagan. $t=5000$ soat vaqt mobaynida TQ ning buzilmay ishlash ehtimolini topish kerak. Zahiralanmagan blok elementlarining tarkibi va TQ elementlarining intensivligi 3.1 jadvalda keltirilgan.

3.1. jadval


Elementlar	Elementlar soni	Element buzilish intensivligi $10^3 \text{ 1/soat 1/coar}$
Tranzistorlar	1	2,16
Diodlar	1	0,78
Qarshiliklar	5	0,23
Sig'imlar	-3	0,32
Induktivlik katushkalari	1	0,09

3.3-misol. Ishonchlilikni hisoblash sxemasi 3.1-rasmda keltirilgan. Elektron mahsulotning buzilmay ishlash ehtimoli topilsin. Agar buzilish ehtimoli $q_1=0,005$; $q_2=0,01$; ma'lum bo'lsa,



3.1-rasm. Ishonchlilik sxemasini hisoblash.


3.4-misol. 3.2-rasmda ishonchlilik sxemasini hisoblash keltirilgan. Elementlarning buzilmay ishlash ehtimoli $P_1=0,9$; $P_2=0,8$; ni tashkil etadi. R_{tiz} buzilmay ishlash ehtimoli va elektron mahsulotning buzilish ehtimolini Q ni topish talab etiladi.



3.2-rasm. Ishonchlilik sxemasini hisoblash.


3.5-misol. Ishonchlilik sxemasini hisoblash 3.3-rasmda ko'rsatilgan. Ma'lum elementlar buzilish ehtimoli orqali q_1 va q_2 qurilmaning buzilmay ishlash ehtimoli topilsin.

$$q_1 = 0,1; q_2 = 0,2.$$




3.3-rasm. Sxema ishonchliligini hisoblash.

3.6-misol. Sxemaning ishonchliligini hisoblash uchun 3.4-rasmda elementning buzilmay ishlash ehtimoli keltirilgan. Qurilmaning buzilmay ishlash ehtimolini hisoblash talab etiladi.



3.4-rasm. Sxema ishonchliligini hisoblash.


3.7-misol. Sxema ishonchliligini hisoblash 3.5-rasmda keltirilgan. Elementning buzilish intensivligi quyida qiymatlarga ega $\lambda_1 = 0,3 \cdot 10^{-3}$ 1/soat, $\lambda_2 = 0,3 \cdot 10^{-3}$ 1/soat. $t=100$ soat mobaynida qurilmaning buzilmay ishlash ehtimoli, birinchi buzilishgacha o'rtacha ishlash vaqti va $t=100$ soat vaqt mobaynida buzilish chastotasini toping.



3.5. rasm. Sxema ishonchliligini hisoblash.


3.8-misol. Qurilma sxemasining ishonchliligini hisoblash 3.6-rasmda ko'rsatilgan. Elementlar buzilish intensivligining qiymatlari quyidagicha: $\lambda_1 = 0,3 \cdot 10^{-3}$ 1/soat, $\lambda^1 = 0,3 \cdot 10^{-3}$ 1/soat. Qurilmani $t = 100$ soat vaqt mobaynida BBIE topish, birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlashi va $t=100$ soat vaqt mobaynida buzilish chastotasi topilsin.

3.9-misol. Qurilma sxemasining ishonchliligini hisoblash 3.6-rasmda keltirilgan. Barcha elementlar teng ishonchlikka ega va buzilishdan keyin ta'siri yo'q. Elementning buzilish intensivligi $\lambda = 1,35 \cdot 10^{-5}$ 1/soat bo'lsa, zahiralangan qurilmaning birinchi buzilishgacha bo'lgan ishlashini aniqlang.



3.6-rasm. Sxema ishonchliligini hisoblash.

3.10-misol. 3.7-rasmda qurilmaning ishonchlik sxemasini hisoblash keltirilgan.



3.7-rasm. Sxema ishonchliligini hisoblash.

Elementning buzilish intensivligi quyidagilarga teng: $\lambda=0,23 \cdot 10^{-3}$ 1/soat, $\lambda_2=0,5 \cdot 10^{-4}$ 1/soat, $\lambda_3=0,4 \cdot 10^{-3}$ 1/soat.

Element buzilgandan keyin ta'siri yo'qoladi deb taxmin qilsak, qurilmaning birinchi buzilishgacha bo'lgan o'rtacha ishlash vaqti va qurilmaning buzilish intensivligi vaqtga bog'liqligini ko'ring.

3.11-misol. Guruhli zahiralangan elementning darajasi 3 ga teng. Birinchi element 2 soat ishladi, ikkinchisi 3 soat, uchinchi esa 5 soat ishladi. Yuklanmaydigan va qayta tiklanmaydigan zahirali tizim qancha vaqt buzilmay ishlaydi?

3.12-misol. Guruhli zahiralangan elementning darajasi 3 ga teng. Birinchi element 2 soat ishladi, ikkinchisi 4 soat, uchinchi esa, 9 soat ishladi. Agar zahira yuklangan va qayta tiklanmaydigan bo'lsa tizim qancha vaqt buzilmay ishladi?

3.13-misol. Elementning ishonchlilik funksiyasi $P(t) = e^{-t/\sigma}$ teng. Agar zahiralash darajasi 2 ga teng bo'lsa va yuklanish zahirasi qayta tiklanmasa, zahira elementining o'rtacha buzilmay ishlash vaqti nimaga teng?

3.14-misol. Elementning ishonchlilik funksiyasi e^{-t} va e^{-2t} ga teng. Agar elementning yuklanmagan o'rin bosishi tiklanishsiz bo'lsa, urin bosuvchi elementning o'rtacha buzilmay ishlash vaqti nimaga teng?

3.15-misol. Elementning yuklanishi uchlanadi va qayta tiklanmaydi. Elementning ishonchlilik funksiyasi e^{-t} , e^{-2t} va e^{-3t} ga teng bo'lsa, elementning buzilmay ishlash o'rtacha vaqti nimaga teng?

3.16-misol. Elementning ishonchlilik funksiyasi $e^{-0,01t}$ ga teng. Zahiradagi elementning o'rtacha buzilmay ishlash vaqti nimaga teng va qanday minimal zahiralash darajasidan foydalaniladi:

- 1) agar zahira yuklangan va qayta tiklanmaydigan bo'lsa 60 soat?
- 2) agar zahira yuklangan va qayta tiklanmaydigan bo'lsa 450 soat?

